

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LEXICAL REFLECTION OF CONCEPT-EXPRESSING UNITS IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD****Nargizoy Sanjarovna Mirzayeva***Senior Lecturer, Doctor of Philosophy on Philological Science (PhD)**Department of "Languages and Humanities Disciplines"**Andijan State Technical Institute*mirzayevaAndmi@gmail.com*Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Concept, conceptual analysis, linguoculturology, cognitive linguistics, "Home" concept, frame analysis, comparative-contrastive analysis, linguistic landscape.

Received: 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

Abstract: This article is devoted to the comparative-contrastive analysis of the linguistic landscape of the global concept "home-uy-дом" within the frameworks of cognitive linguistics and linguoculturology. The research employed a complex methodology, including conceptual, associative, and frame analysis, modeling, and text analysis. The analysis revealed that the concept of "home" is a multifaceted, culturally significant unit encompassing not only material shelter but also meanings such as family, homeland, personal space, and value. Comparative analysis demonstrated the specific emphasis placed on certain aspects of the concept in each language, while the core meanings are globally preserved. Frame analysis uncovered the internal structure (slots) of the "home" concept, aiding in the understanding of how the general human mental model is reflected in language.

KONSEPTNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LISONIY MANZARADA AKS ETISHI**Nargizoy Sanjarovna Mirzayeva***f.f.f.d.,(PhD)**"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi**Andijon davlat texnika instituti*mirzayevaAndmi@gmail.com*Andijon, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Konsept, konseptual tahlil, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, “uy” konsepti, freym tahlili, qiyosiy-kontrastiv tahlil, lisoniy manzara.

Annotatsiya: Ushbu maqola kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yoʻnalishlari asosida “uy-home-дом” kabi global konseptning lisoniy ifodalanish manzarasi qiyosiy-kontrastiv tahliliga bagʻishlangan. Tadqiqotda konseptni oʻrganishda konseptual, assotsiativ, freym tahlili, modellashtirish va matnlarni tahlil qilish kabi kompleks metodologiyadan foydalanildi. Tahlillar natijasida “uy” konseptining nafaqat moddiy boshpana, balki oila, vatan, shaxsiy makon va qadriyat kabi koʻp qirrali ijtimoiy-madaniy maʼnolarni oʻz ichiga oluvchi keng qamrovli birlik ekanligi aniqlandi. Qiyosiy tahlil har bir tilda konseptning maʼlum jihatlariga urgʻu berilishini, ammo asosiy maʼnolarning global miqyosda saqlanib qolishini koʻrsatdi. Freym tahlili esa “uy” konseptining ichki tuzilishini (slotlarini) ochib berdi, bu esa insoniyatning umumiy mental modelining til orqali ifodalanishini tushunishga yordam beradi.

ОТРАЖЕНИЕ ЕДИНИЦ ВЫРАЖАЮЩИХ КОНЦЕПТ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА

Наргиза Санджаровна Мирзаева

Старший преподаватель, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

кафедры «Языки и гуманитарные науки»

Андижанского государственного технического института

mirzayevaAndmi@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Концепт, концептуальный лингвокультурология, лингвистика, концепт «дом», фреймовый анализ, сравнительно-сопоставительный анализ, лингвистический ландшафт.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительно-сопоставительному анализу лингвистического ландшафта глобального концепта «дом-у-home» в рамках когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. В исследовании использовалась комплексная методология, включающая концептуальный, ассоциативный, фреймовый анализ, моделирование и анализ текстов. Результаты анализа показали, что концепт «дом» является многоаспектной, культурно значимой единицей, охватывающей не только материальное убежище, но и такие понятия, как семья, родина, личное пространство и ценность. Сравнительный анализ выявил акцентирование

определенных аспектов концепта в каждом языке при сохранении общих смыслов в глобальном масштабе. Фреймовый анализ раскрыл внутреннюю структуру концепта («слоты»), что способствует пониманию того, как общая ментальная модель человечества отражается в языке.

Kirish. Tilshunoslikda konseptni o'rganishning yagona, aniq ta'rifi va umume'tirof etilgan metodologiyasi mavjud emas. Konseptlar chegaralarining xiralashganligi va ularni tadqiq qilish usullaridagi nomutanosiblik tilshunoslik bilimlarining nisbiyligi bilan bog'liq. Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan konseptni tahlil qilishda eng keng tarqalgan usul konseptual tahlildir. Bu usulning maqsadi lingvistik voqelik bilan bog'liq so'zning aqliy tuzilishini bilishdir. Biroq, tadqiqotchilarning fikricha, konseptual tahlil biror ma'lum texnika emas, balki turli yondashuvlar birligidir. Ushbu usul orqali dunyoni konsept atamaları nuqtayi nazaridan tushunish va lingvistik ong sirlariga kirib borish imkoniyati yaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Konseptni o'rganishning xilma-xil usullari mavjud bo'lib, ularning asosiy vositasi konseptual tahlildir. Tadqiqotlarda ko'p hollarda V.Z.Dem'yankov kabi mualliflarning matn korpusini jalb qilish usuli [1] yoki A.Vejbitskayaning introspektsiya usuli qo'llaniladi. [3] Konseptlarni o'rganishda modellashtirish va assotsiativ eksperiment usullaridan ham keng foydalaniladi. T.V.Buligina va S.A.Krilovlar modelni haqiqatning soddalashtirilgan versiyasi sifatida ko'rsa [5], Y.N.Karaulov assotsiativ tahlilni til ongini o'rganish vositasi deb ta'riflaydi. [6] Assotsiativ yondashuv til materiallarini egasidan alohida o'rganishga yo'l qo'ymaydi, balki til egalarining voqelikni idrok etishi, bilimi va lingvistik xotirasi imkoniyatlarini ochib beradi. D.Lutfullayeva ham assotsiativ birliklar (sinonimlar, antonimlar, uyadagi so'zlar va boshqalar) vazifasini bajaruvchi leksik birliklar haqida gapiradi. [7] Tadqiqotda "uy" konseptining sinonimlari asosida o'zbek, ingliz va rus tillarida qiyosiy-kontrastiv tahlil olib borildi. "Uy" konseptini chuqurroq tahlil qilish uchun I.A.Tarasova metodikasiga freym tuzilmalaridan foydalanildi. Badiiy adabiyotlar, og'zaki adabiyot namunalari va lug'at materiallari tahlil obyekti bo'ldi, chunki zamonaviy inson dunyo haqidagi bilimlarining ko'p qismini aynan matnlar orqali oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo'nalishlariga asoslanib, "UY-HOME-ДОМ" konseptining uchta til (o'zbek, ingliz, rus)dagi lisoniy ifodalarini qiyosiy-kontrastiv tahlil qilishga qaratiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi: konseptual tahlil (masalan, V.Z.Dem'yankovning matn korpusini jalb qilish, [1] A.Vejbitskayaning introspektsiya usuli) [3], modellashtirish (konsept elementlarini tizimli ifodalash uchun), assotsiativ eksperiment (leksik birliklarning aloqalarini

ochish uchun) (Y.N.Karaulov “bu til egalarining voqelikni idrok etishi va lingvistik xotirasi imkoniyatlarini ochib beradi.” [6] D.Lutfullayeva ta’kidlaganidek, assotsiativ birliklar ushbu konseptning turli ma’nolardagi ifodasini ochishga yordam beradi. [7]), qiyosiy-kontrastiv tahlil (tillardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash uchun) va freym tahlili (Ch.Fillmor, Sh.Safarov nazariyalari asosida konseptning chuqur tarkibini aniqlash uchun [10,11]). Shuningdek, tahlilda badiiy va og’zaki adabiyotlar materiallari asosiy manba bo’ldi.

Tahlil va natijalar. Ushbu metodologik yondashuvlar kompleks tarzda qo’llanilishi “uy” konseptining lingvistik manzaradagi o’rnini, uning turli tillar va madaniyatlardagi o’ziga xos va umumiy jihatlarni chuqur va har tomonlama o’rganishga imkon berdi. Biz o’z ishimizda UY-HOME-ДОМ konseptining sinonimlari asosida 1-jadvalda tahlil qilib chiqdik.

1-jadval

UY-HOME-ДОМ konseptining sinonimlari

№	O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA
1	Uy	Home	Дом, юрта
2	Vatan	Homeland, home town	Родина
3	Ona vatan	Motherland	Родные пенаты
4	Yurt	Country	Страна
5	Xonadon	Apartment	Квартира
6	Boshpana	Shelter	Приют, кров
7	Panohgo’y	Shelter	Пристанище
8	Koshona	Mansion	Дворец
9	Qasr	Castle	Особняк, хоромы
10	Kulba	Hut	Хибара, лачуга, халупа, хибарка, мазанка, лачужка

Tadqiqotda bundan tashqari qiyosiy-kontrastiv tavsiflash usuli qo’llaniladi. Qiyosiy yondashuv kelajakda “olamning umumiy milliy manzarasini” taqdim etish uchun lingvistik voqelikni turli tillarga bo’lishning turli usullarini tahlil qilish imkonini beradi. Leksemalar, frazeologik birliklar, aforizmlar, publitsistik va badiiy matnlarni qiyosiy va kontrastiv tahlil qilish natijalari nafaqat tillarni bilish uchun material bo’lishi mumkin, balki xalqning madaniy, ma’naviy, moddiy darajalari haqida ma’lumot berishi, ularning o’ziga xosligini, mentalitetini, his-tuyg’ular olamini, g’oyalarini ko’rsatishi mumkin.

Ma’lumki, zamonaviy inson dunyo haqidagi bilimlarining ko’p qismini namoyon bo’lishining barcha xilma-xilligida bevosita tajribadan emas, balki matnlardan oladi. Eshitilgan

yoki o'qilgan matnlar insonning shakllanishiga, jumladan, uning tiliga matnlarni ishlab chiqarish, o'zgartirish va tushunish uchun qurilma sifatida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchilar uchun oldingi matnlarini talqin qilish katta ahamiyatga ega. Matn lingvistikasi va madaniy hamjamiyatning har qanday o'rtacha a'zosiga tanish bo'lgan matn bo'lib, uning g'oyasi ushbu jamoa a'zolarining nutqida muntazam yangilanib turadi.

Tilshunoslikda "uy" konseptini obyektivlashtirishning leksik-frazeologik va individual-mualliflik vositalari aniqlanadi va tizimlashtiriladi, buning natijasida konsept psixik modelining terminallari to'ldiriladi. "Uy" fenomenining turli xil xususiyatlari tizimli tillarida so'zlashuvchi til madaniyati tashuvchilari tomonidan aktuallashtiriladi. Matnlarni tahlil qilish va sharhlash alohida o'rin tutadi. Matnlarga badiiy asarlar, og'zaki adabiyotning turli janrlari (fazeologik birliklar, maqollar, matallar), ilmiy, publitsistik matnlar, aforistika kiradi.

Biz "uy" konseptini o'rganishda muhim rolni assotsiativ eksperimentga yuklaymiz. "Uy" maydoniga kiruvchi leksik birliklarning assotsiativ aloqalarini tahlil qilish ma'noning o'ziga xos tuzilishini, nutq va tafakkur orqali odamda rivojlanadigan aloqalar va munosabatlarning chuqur modelini ochishga uning ko'p qirrali tajribaga ega "kognitiv tilshunoslik" imkon beradi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida qiyosiy-kontrastiv tavsiflash usuli qo'llaniladi, bu ingliz, o'zbek va rus tillarida "uy" konseptini ifodalashda umumiy xususiyatlarni va eng muhim tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Biz buni "uy" tushunchasiga nisbatan qo'llash mumkinligiga ishonamiz, chunki u badiiy matn tarkibiga kiritilganda madaniy konsept, badiiy konsept sifatida ham ifodalanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda misollar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, freym deb, o'lchami katta bo'lgan bir necha tarkibli konsept bo'lib, u semantik maydon tushunchasiga chambarchas bog'liq.

U insoniyatning hayoti davomida yig'ilgan bilimlar to'plami bo'lib, shuningdek, ko'rinishning noma'lum modeli hisoblanadi. Olimlarning "freym" to'g'risidagi nazariy qarashlarini e'tiborga olgan holda, ularni umumlashtirib, boyitgan holda M.Jo'rayevaning nazariy qarashlariga qo'shib quyidagi ta'rifni beramiz:

Freym bu – har xil ko'rinishdagi ma'lumot hamda holatlarni keng ma'nodagi har tomonlama tizim shaklida ifoda etuvchi, mazmuniy va ma'noviy asoslar turi yordamida qolipga solingan bilimlar to'plamini turli qoliplar hamda bir-biridan farq qiluvchi lisoniy birikmalar vositasida, cheksiz komponentga ega konseptdir. Ulardan bevosita insonning boshqalar bilan qiladigan suhbat davomida foydalanilib, o'zida qo'shimcha tilga oid axborot va holatlar olamini aks ettiradi. Shu bilan birga, bu usul insoniyatga olingan ma'lumotlarni ongida saqlashga yordam beruvchi usullaridan biridir. Ular inson umri davomida to'plangan ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarga asoslanadi. Metaforik ifodalarni talqin etishda ularning roli kattadir.[12]

Tadqiqot ishimizda asosan lug‘at materialiga tayanganimiz uchun va deklarativ bilimlarning odatiy namunasi oddiy izohli lug‘atlarda so‘zlarning talqini deb hisoblanishi mumkin. Chunki kognitiv tuzilma sifatida freymdan foydalanish juda mantiqiy va tabiiy epistemologik tanlovdir.

Odatda, aniqlik uchun freym jadval shaklida taqdim etiladi, ularning qatorlari uyalarini (slotlarni) ifodalaydi; har bir uyaning (slotlarni) o‘z nomi va mazmuni bor. “Uy” tushunchalarini o‘zbek, ingliz va rus tillarida freymlar ko‘rinishida taqdim etish maqsadida xuddi shunday qilamiz.

Freymlar, odatda, ma’nolar va munosabatlar shaklida tuzilishi ega. Freymning yuqori darajalari aniq va muayyan vaziyatga ega ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Pastki darajadagi uyalar (slotlar) vaziyatga qarab ma’lumot bilan to‘ldirilishi mumkin bo‘ladi. (2–jadvalga qarang):

2-jadval

“Uy” freymi o‘zbek tilida

Uya (slot) nomi	Uyalar (slotlar) tarkibi
Mavzu uy	1.A. Borlik 2.B. Yo‘qlik
Obyekt uy	2.A. Uy, moddiy boylik 2.B. Oila 2.C. Har qanday qadr-qimmatli narsa
Normaga munosabat	3.A. Meyor. 3.B. Ko‘proq. Ancha
Baholash	4.A. Ijobiy 4.B. Salbiy 4.C. estetik
Narx	5.A. Yuqori. 5.B. Arzon
Til turkumlashtirish	6. A. xususiyati 6. B. Mavhum xususiyati 6. C. Dinamik xususiyati. 6. D. Belgining belgilari.

Yuqorida jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “katta uyga, asosan boylikka ega” birinchi leksemasining ma’nosi freym semantikasi jihatidan quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

1. egalik predmeti “uy”:
 - a) shaxs;

b) ega emas, balki bir kishi (kontekstiga qarab).

2. Uy. Obyekt:

a) uy, moddiy boylik.

b) oila.

3. Normaga munosabat:

a) normadan ortiq:

4. Reyting.

5. Yangilanmagan.

6. Til turkumlanishi:

a) xususiyati.

b) qiymati.

1. egalik predmeti: a) chiqarib tashlangan; haqiqiy tarkib.

b) narsalarga nisbatan.

2. egalik obyektining mazmuni birinchi o‘ringa olib chiqiladi. Har qanday jihatdan qimmatli narsa. Shuni ta’kidlash kerakki, umumiy holda 2 va 3 qiymatlari yaqin. Farqi, birinchi navbatda, majburiy muvofiqligi, mavjudligi, yo‘qligiga asoslangan. “Mol-mulk” ma’nosida muayyan hodisaning qanchalik boy ekanligidan dalolat sifatida obyektiv shart emas. Aksincha, “katta inshoot” ma’nosi muayyan hodisaning qanday jihatdan boy ekanligini tavsiflash uchun obyektning mavjudligini talab qiladi, biz mavzu-obyekt munosabatlarining murakkab tarmog‘iga kirganimizda, bu faqat matn darajasida tushuntirilishi mumkin.

3. a) uyasi – normaga bo‘lgan munosabat.

b) juda ham ko‘p.

4. a) uyasi – ijobiy. 2 va 3-qadriyatlarning ijobiy baholanishi, xususan, qadriyatlarga izoh sifatida xizmat qiluvchi sinonimlar hamda toponimlardan foydalanish orqali tasdiqlanadi.

Chunonchi, yuqoridagi misollardan (ikkinchi ma’no) “oila” freymi tarkibiga uning uyalaridan (slotlardan) biri, masalan, “oila a’zolari” kiritiladi va shunga mos ravishda unga tegishli ekstralingvistik axborotlar aktivlashtiriladi: ota-ona, opa-singil, aka-uka, bobo-buvi va boshqalar.

Shunday qilib, mazkur faslda ko‘rib chiqilgan “uy” konseptiga oid tadqiqot ishlaridan ma’lum bo‘ladiki, “uy” konseptiga ega leksemalar doirasida amalga oshirilgan dissertatsiyalarning ma’lum miqdori roman-german lingvistikasida hamda rus tilshunosligida bajarilganligi ma’lum bo‘ldi. Albatta, bu qarashlarga biz o‘z munosabatlarimizni bildirdik.

“Uy”ning ijtimoiy-madaniy konseptini o‘rganishda, ko‘rib chiqilayotgan obyektning yaxlit obrazini tuzish uchun asosiy, badiiy va adabiy matnlar, diniy kitoblardir. Diniy kitoblarning ming yillar davomida xalqlar tarixi, mentaliteti va tiliga ta’siri g‘oyat kattadir.

Mulohaza va diskussiya

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, “UY-HOME-ДОМ” kabi universal konseptlar turli tillarda o‘ziga xos madaniy kodlarga ega bo‘lsa-da, ularning asosiy ma’nolari (xavfsizlik, oilaviy qadriyatlar) saqlanib qoladi. Qiyosiy-kontrastiv yondashuv o‘zbek, ingliz va rus tillari materialida bu umumiy va xususiy jihatlarni aniqlashga imkon berdi. Freym tahlili orqali “uy” konsepti yuzaki ma’nolardan tashqari, chuqur ijtimoiy-madaniy komponentlarga (masalan, me’yorga munosabat, ijobiy baholash) egaligini ko‘rsatdik. Bu tadqiqot til o‘qitish va tarjimonlik faoliyatida madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Yakuniy xulosada aytish mumkinki, ushbu tadqiqot kompleks metodologiya yordamida “uy” konseptining uch tildagi lisoniy manzarasi tahlil qilinib, uning murakkab va ko‘p qirrali tuzilishi ochib berildi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik doirasida global konseptlarni o‘rganish uchun samarali metodologik asosni taqdim etadi. Kelajakda ushbu tadqiqotni boshqa ijtimoiy-madaniy konseptlarni o‘rganish orqali kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Демьянкова В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопросы. языкознания. – Москва, 1994. №4. – С. 17.
2. Бухаров В.М. Концепт в лингвистическом аспекте // Межкультурная коммуникация. Учебное пособие. – Нижний Новгород, 2001. – С. 74-84.
3. Вежицкая А. Семантические универсалии и описание языка// Москва, 1999. – С. 70.
4. Золотарева И.Б. Лексико-семантические средства выражения этико-эстетических концептов в художественном тексте (на материале стихотворений и художественной прозы В.С.Соловьева): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – С. 9.
5. Булыгина Т.В., Крылов С.А. Понятийные категории // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, Советская энциклопедия, 1990. – С. 304.
6. Караулов Ю.Н. Ассоциативный анализ: новый подход к интерпретации художественного текста // Караулов Ю.Н. // Материалы IX конгресса МАПРЯЛ. – Братислава, 1999. Доклады и сообщения русских ученых. – Москва: ИОО “Лев Толстой”, 1999. – С. 151-158.
7. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси: Монография. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 7.
8. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва: Гнозис, 2004. – С. 5.

9. Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013 – Б. 4.
10. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике: Когнитивные аспекты языка. – Вып. XXIII. – Москва: Прогресс, 1988. – С. 52-92.
11. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25-46.
12. Жўраева М. Француз ва ўзбек эртақлари матнида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 59.